



UDK:1751

Nilufar ISHANKULOVA,
Dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti
E-mail: blume20@mail.ru

PhD, dotsent X.Nurullayev taqrizi asosida

NEMIS TILIDA CHEGARALANGAN FE'LLAR BILAN PRETERIT SHAKLINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis tilidagi preterit shaklining aspektual semantikasi, ayniqsa chegaralangan (telik) fe'llar bilan qo'llanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda preterit shaklining faqat temporal vosita sifatida emas, balki turli aspektual vaziyatlarni ifodalovchi muhim grammatik birlik sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Tahlil materiali sifatida asosan Goethe asarlaridan olingan misollar asosida fe'llarning aksional xususiyatlari hamda ularning kontekstual talqini o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, chegaralangan fe'llar ko'pincha terminativ va natijaviy vaziyatlarni ifodalaydi, limitativ neytral fe'llar esa aspektual jihatdan variativ bo'lib, harakatning ham jarayonli, ham tugallangan shakllarini ifodalashi mumkin.

Shuningdek, maqolada aspektual dualizm hodisasi ham alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Aspektuallik, preterit, chegaralangan fe'llar, limitativ neytral fe'llar, aksional semantika, terminativlik, natijaviylik, jarayonlilik, aspektual dualizm, kontekst, nemis tili.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФОРМЫ ПРЕТЕРИТА У ГЛАГОЛОВ С ОГРАНИЧЕННОЙ АСПЕКТУАЛЬНОСТЬЮ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье анализируется аспектуальная семантика формы претерита в немецком языке, в особенности при употреблении с предельными (телическими) глаголами. Показано, что претерит функционирует не только как средство выражения прошедшего времени, но и как важный элемент аспектуальной системы языка. На материале примеров из произведений Иоганна Вольфганга Гёте исследуются акциональные характеристики глаголов и их контекстуальная интерпретация. Результаты анализа свидетельствуют о том, что предельные глаголы преимущественно реализуют терминативные и результативные ситуации, тогда как лимитативно нейтральные глаголы демонстрируют аспектуальную вариативность и могут выражать как процессуальные, так и завершённые действия.

Особое внимание уделяется явлению аспектуального дуализма.

Ключевые слова: Аспектуальность, претерит, предельные глаголы, лимитативно нейтральные глаголы, акциональная семантика, терминативность, результативность, процессуальность, аспектуальный дуализм, контекст, немецкий язык.

SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE PRETERITE TENSE IN BOUNDED VERBS IN GERMAN

Annotation

This article examines the aspectual semantics of the preterite in German, with particular focus on its use with telic verbs. The study demonstrates that the preterite functions not only as a marker of past tense but also as an important element of the aspectual system. Based on examples from the works of Johann Wolfgang von Goethe, the actional properties of verbs and their contextual interpretation are analyzed. The results show that telic verbs predominantly express terminative and resultative situations, whereas imitatively neutral verbs exhibit aspectual variability and can denote both processual and completed actions.

Special attention is paid to the phenomenon of aspectual dualism.

Key words: Aspectuality, preterite, telic verbs, actional semantics, terminativity, resultativity, processuality, aspectual dualism, context, German.

Kirish. Fe'lning zamon shakllari semantikasini o'rganish zamonaviy tilshunoslikda muhim o'rin egallaydi, chunki tilning fe'l tizimi harakatning vaqt va aspektual xususiyatlarini konseptualashtirish usullarini aks ettiradi. Nemis tilida o'tgan zamonning markaziy shakllaridan biri Präteritum bo'lib, u an'anaviy ravishda, avvalo yozma nutq va badiiy bayonlarda, o'tgan zamonni ifodalashning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

Biroq zamonaviy tadqiqotlar [3], [4], [5], [8] shuni ko'rsatadiki, preteritning funksional imkoniyatlari faqat voqeaning vaqt jihatdan joylashuvini ifodalash bilan cheklanmaydi. Ayrim hollarda mazkur shakl fe'lning leksik semantikasi, gapning sintaktik tuzilishi hamda kontekstual omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan turli aspektual talqinlarni shakllantirishda ham ishtirok etadi.

Duden. Die Grammatik [4] ma'lumotlariga ko'ra, preterit shakli o'tmishga oid voqealarni ifodalash uchun xizmat qiladi va ayniqsa yozma bayon nutqi uchun xosdir. Badiiy matnlarda u voqealarni ketma-ket yakunlangan harakatlar sifatida taqdim etib, bayonning tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Xuddi shu fikrni H. Engel ham qo'llab-quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, preterit nemis tilida ko'pincha narrativ zamon shakli sifatida qo'llanilib, matnda voqealar rivojini strukturalashtiradi va bayon dinamikasini ta'minlaydi [5].

Zamon shakllari semantikasiga oid tadqiqotlarda vaqt kategoriyasi bilan harakatning aspektual xususiyatlari o'rtasidagi yaqin bog'liqlik alohida ta'kidlanadi. Jumladan, W. Klein fikricha, matndagi voqeaning talqini zamon shakli, fe'lning leksik semantikasi va kontekst omillarining o'zaro ta'siri orqali belgilanadi [8].

Slavyan aspektologiyasi doirasida ham ushbu g'oya Yu. S. Maslov tomonidan ilgari suriladi. Unga ko'ra, harakatning aspektual talqini grammatik va leksik omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi [9].

1. Holat o'zgarishining kauzativ fe'llari

Ushbu guruhga sub'ekt tomonidan ob'ektning bir holatdan boshqa holatga o'tishini keltirib chiqaradigan harakatni ifodalovchi fe'llar kiradi.

Misol: Sie schloss das Fenster (Goethe, S. 22). - (U oynani yopdi.)

schließen fe'li kauzativ hisoblanadi: sub'ekt shunday harakatni amalga oshiradiki, uning natijasida ob'ektning holati o'zgaradi (oyna → yopiq oyna). Preterit shaklida ushbu harakat terminativ sifatida talqin qilinadi, chunki u yakuniy holatga erishish lahzasini belgilaydi.

Bu guruhga, shuningdek, öffnen, stellen, legen kabi fe'llar ham kiradi.

2. Maqsadga yo'naltirilgan yurish-harakat fe'llari

Ushbu fe'llar sub'ektning muayyan yakuniy nuqtaga qarab harakatlanishini ifodalaydi. Misol: Wir verließen die Stadt in großer Eile (Goethe, S. 86). - Biz shaharni katta shoshilinch bilan tark etdik.

3. Natijaga erishish fe'llari

Alohida guruhni harakat natijasiga erishishni ifodalovchi fe'llar tashkil etadi.

Misol: Sie fing den Ball, der auf sie zuflog (Goethe, S. 86). - U o'ziga tomon uchib kelayotgan to'pni ushlab oldi. Fangen fe'li natijaga erishishni, ya'ni ob'ektning sub'ekt qo'lga o'tish lahzasini ifodalaydi. Preterit shaklida bunday fe'llar natijaviy aspektual vaziyatni ifodalaydi.

Bu guruhga fangen, finden, nehmen, verlieren kabi fe'llar kiradi.

4. Limitativ neytral fe'llar

Chegaralangan fe'llar bilan bir qatorda, qat'iy aksional xususiyatga ega bo'lmagan fe'llar guruhi ham mavjud. Ularning semantik tuzilishi o'z ichiga o'zaro zid bo'lgan, ya'ni chegaralanganlik va chegaralanmaganlik xususiyatlarini qamrab oladi. Bunday fe'llarga schreiben, lesen, bauen, malen kiradi.

Masalan: Ich schrieb die letzte Zeile und legte den Stift weg (Goethe, S. 109). - Men oxirgi satrni yozdim va ruchkani qo'ydim.

Bu erda die letzte Zeile ob'ekti yozish harakatining yakuniy bosqichini ko'rsatadi, gapning keyingi qismi esa jarayonning tugallanganligini tasdiqlaydi.

Aspektual dualizm

Ayrim hollarda limitativ neytral semantikaga ega fe'llar ikki xil aspektual talqinni qabul qilishi mumkin.

Masalan: Er las den Brief (Goethe, S. 97). - U xatni o'qidi / xatni o'qiyotgan edi.

Ushbu gap ham tugallangan harakat («xatni o'qidi»), ham jarayon («xatni o'qiyotgan edi») sifatida talqin qilinishi mumkin. Bunday holatlar aspektual dualizm hodisasini namoyon etadi, ya'ni bir xil fe'l shakli kontekst sharoitga bog'liq ravishda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Yurish-harakat fe'llarining aspektual interpretatsiyasi

Alohida qiziqish yurish-harakat fe'llarini tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Ularning ayrimlari, masalan gehen, fahren, reiten, avvalo harakatlanish jarayonini ifodalaydi va o'z semantik tuzilishida harakatning yakuniy nuqtasiga erishishni majburiy ravishda nazarda tutmaydi. Shu sababli ularni limitativ neytral fe'llar sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bunday fe'llar kontekstga qarab ham jarayonli, ham terminativ talqinni ifodalashi mumkin.

Boshqacha holat esa aniq chegaralanganlik semantikasiga ega fe'llar qo'llanilganda kuzatiladi. Bunday fe'llarga, masalan, ankommen, eintreffen, erreichen kiradi, ularning ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri harakatning yakuniy nuqtasiga etib borish bilan bog'liq.

Masalan: Er kam endlich im Dorf an. - U nihoyat qishloqqa yetib keldi.

Bu eyrda ankommen fe'li harakatning tugallanishini va yakuniy manzilga etib borishni ifodalaydi. Ankommen, eintreffen, erreichen kabi fe'llar, odatda harakatning yakuniy nuqtasiga erishishni nazarda tutadi va shu sababli terminativ vaziyat ma'nosini ifodalaydi.

Alohida o'rinni kommen fe'li egallaydi, u ayrim hollarda ikki xil aspektual talqinni qabul qiladi. S.-G. Anderson ta'kidlashicha, Er kam zurück gapi ham tugallangan harakatni (er war wieder da — u yana kelib bo'lgan edi), ham qaytish jarayonini (er war unterwegs — u yo'lda edi) anglatishi mumkin [1:28].

B. H. Rizayev qayd etishicha, aspektual dualizm ayniqsa kommen fe'li vorbei yoki vorüber kabi yo'nalishni bildiruvchi birliklar bilan qo'llanilganda kuzatiladi. Mazkur komponentlar harakatning yo'nalishini va uning o'tish jarayonini alohida ta'kidlaydi [10].

T. Fontane asaridan keltirilgan quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

Gleich danach ritt man ab. Als sie bei der Glaskugel vorbeikamen, wandten sich alle drei noch mal zurück, und jeder lüpfte seine Mütze. - Darhol shundan keyin ular yo'lga tushdilar. Ular shisha shar yonidan o'tib ketayotganlarida, uchalasi yana bir bor orqaga qaradilar va har biri shlyapasini ko'tardi.

Ushbu kontekstda vorbeikamen fe'li ikki xil tarzda talqin qilinishi mumkin. Bir tomondan, u muayyan orientirga etib borish lahzasini anglatib, shu orqali harakatning tugallanganligini ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, vorbei komponenti obyekt yonidan o'tib ketish jarayoniga urg'u berib, harakatning jarayonli talqinini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, tahlil shuni ko'rsatadiki, yurish-harakat fe'llari aspektual dualizmi namoyon qilishi mumkin, ya'ni bir xil fe'l shakli kontekstga bog'liq holda turlicha talqin qilinadi. Chegaralangan fe'llar preterit shaklida nafaqat terminativ, balki aniq jarayonli turdagi vaziyatlarni ham ifodalay oladi. Qiyos qiling, B. H. Rizaev ishida [10] keltirilgan quyidagi misolni:

Frau Dörr saß so, daß sie den Gartensteg hinaufsehen und trotz der Dämmerung erkennen konnte, wer draußen am Hackenzaun entlang des Wegs kam. - Dörr xonim shunday o'tirgan ediki, u bog' yo'lakchasi bo'ylab qarab, g'ira-shiraga qaramay, tashqarida panjara bo'ylab yo'ldan kim kelayotganini ajrata olardi.

Kommen fe'lining semantik tuzilishi bir-biri bilan bog'liq bir nechta komponentlarni o'z ichiga oladi:

- kuzatuvchi tomonga yo'nalgan harakat;
- muayyan orientirga yaqinlashish;
- harakatning yakuniy nuqtasiga etib borish.

Birinchi va ikkinchi komponentlar vaqt jihatidan cho'zilgan jarayon bilan bog'liq, uchinchi komponent esa harakatning natijaviy (terminativ) bosqichini ifodalaydi. Kontekstual shart-sharoitlarga qarab fe'l semantikasidagi muayyan komponent aktuallashadi. Keltirilgan misolda aynan kuzatuvchi tomonga yo'nalgan harakat komponenti aktuallashadi va bu harakatning jarayonli talqinini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, bu yerda fe'lning chegaralanganligi yo'qolishi haqida emas, balki uning semantik tuzilishidagi muayyan komponentning aktuallashuvi haqida so'z borayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Preterit shaklida fe'llarning semantik-aksional tavsifi va aspektual talqini

Misol	Fe'l	Fe'ning semantik-aksional tavsifi *	Aspektual talqin
Sie schloss das Fenster	schließen	holat o'zgarishining kauzativ fe'li	terminativ
Wir verließen die Stadt	verlassen	yo'naltirilgan harakat (chegaraga erishish)	terminativ
Er brachte das Kind nach Hause	bringen	maqsadga yo'naltirilgan harakat	natijaviy
Sie fing den Ball	fangen	natijaga erishish fe'li	natijaviy
Ich verlor mich in ihren Augen	verlieren	holatga erishish fe'li	natijaviy
Sie nahm die Blumen	nehmen	egalikka erishish fe'li	natijaviy
Ich schrieb ihr einen langen Brief	schreiben	limitativ neytral fe'l	natijaviy
Ich schrieb die letzte Zeile und legte den Stift weg	schreiben	limitativ neytral fe'l (yakunlovchi kontekst)	terminativ
Ich baute einen kleinen Turm aus Steinen	bauen	limitativ neytral fe'l	natijaviy
Er las den Brief	lesen	limitativ neytral fe'l	aspektual dualizm
Sie nahm die Blumen und schenkte sie mir	nehmen / schenken	ketma-ket qo'llangan terminativ fe'llar	narrativ ketma-ketlik
Ich öffnete den Brief und las ihn sofort	öffnen / lesen	terminativ va limitativ neytral fe'llar kombinatsiyasi	narrativ ketma-ketlik
Wer draußen am Hackenzaun entlang des Wegs kam	kommen	yurish-harakat fe'li (potensial chegaralangan)	jarayonli
Als sie bei der Glaskugel vorbeikamen	vorbeikommen	orientirga nisbatan yurish-harakat	aspektual dualizm

Izoh: * Jadvalning uchinchi ustunida fe'llarning leksik-semantik xususiyatlari, aksional tipi hamda ayrim hollarda kontekstual-funksional tavsifi birgalikda aks ettiriladi.

Tahlil natijalarining interpretatsiyasi. Taqdim etilgan material bir qator muhim xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, holat o'zgarishi fe'llari hamda yo'naltirilgan yurish-harakat fe'llari ko'pincha terminativ vaziyatlarni ifodalaydi, chunki ularning semantikasi harakatning tabiiy chegarasiga erishishga qaratilgan. Bunday hollarda preterit harakatning tugallanish lahzasini yoki ob'ektning yangi holatga o'tishini belgilaydi.

Natijaga erishish fe'llari (fangen, nehmen, verlieren) odatda natijaviy vaziyatlarni ifodalaydi, chunki ularning ma'nosi muayyan natijaga erishish bilan bevosita bog'liq.

Eng variativ guruhni limitativ neytral fe'llar tashkil etadi. Schreiben, lesen, bauen kabi fe'llar kontekstga qarab turli aspektual ma'nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, Ich schrieb ihr einen langen Brief konstruksiyasi harakatni natijaviy sifatida ifodalasa, Ich schrieb die letzte Zeile und legte den Stift weg gapida ikkinchi predikativ qism ta'sirida terminativ talqin aktuallashadi.

Ayniqsa, Er las den Brief misoli juda xarakterlidir, chunki u ikki xil talqinni qabul qiladi: harakat tugallangan («xatni o'qib chiqdi») yoki jarayon sifatida («xatni o'qiyotgan edi») tushunilishi mumkin. Bunday holatlar aspektual dualizm mavjudligini ko'rsatadi.

Shunga o'xshash hodisalar yurish-harakat fe'llari bilan ham kuzatiladi. Masalan (qarang yuqorida keltirilgan misol)

Aspektual talqinning asosiy omillari

Material tahlili shuni ko'rsatadiki, preterit shaklining aspektual talqini bir nechta omillar ta'sirida shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Andersson S.-G. Aktionalität im Deutschen. Eine Untersuchung unter Vergleich mit dem russischen Aspektsystem. II. Korpusanalyse. Mit einem Exkurs über Aktionalität im deutschen Verbalformsystem. – Uppsala, 1978. – 245 S.
2. Bondarko, A. V. Teoriya funktsional'noy grammatiki. Aspektual'nost'. – Sankt-Peterburg: Nauka, 2001. – 304 s.
3. Duden. Die Grammatik. 9. Auflage. – Berlin: Dudenverlag, 2016. – 1344
4. Engel, U. Deutsche Grammatik. – München: Iudicium Verlag, 2009. – 888 S.
5. Fontane, Th. Romane und Erzählungen: in 8 Bänden. Bd. 5. – Berlin; Weimar: Aufbau-Verlag, 1973. – [Seitenzahl nicht angegeben].
6. Goethe, J. W. Die Leiden des jungen Werthers. – Stuttgart: Reclam, 2002. – 168 S.
7. Klein, W. Time in Language. – London: Routledge, 1994. – 216 p.
8. Rizayev, B. H. Problema aspektnoy semantiki vremennykh form nemetskogo glagola. Aspektnaya semantika preterita. – Tashkent: Fan, 1999. – 121